

UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK:330.1:338.054.23:631.1

AXMEDOVA NAFISA AMIRDDIN QIZI

MAMLAKATDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING
NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.01-Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., (DSc). S.R.Topildiyev

Toshkent-2024

	KIRISH.....	3
I-BOB.	GLOBAL IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	13
1.1-§.	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga bag'ishlangan ilmiy qarashlarning rivojlanishi.....	13
1.2-§.	Mamlakatda yaratilgan oziq-ovqat mahsulotlari va ratsional ovqatlanish normativlari o'rtasidagi nisbiy tahlili.....	22
1.3-§.	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning xorij tajribasi.....	35
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	45
II-BOB.	YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	46
2.1-§.	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy-institusional asoslari...	46
2.2-§.	O'zbekistonda suv resurslaridan oqilona foydalanishning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'siri va muammolarining tahlili.....	56
2.3-§.	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni hozirgi holati.....	77
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	91
III-BOB.	O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	92
3.1-§.	Oziq-ovqat klasterlarini tashkil etish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	92
3.2-§.	Oziq-ovqat eksporti salohiyatini oshirishda Global G.A.P xalqaro andozasidan foydalanish va eksportini oshirish yo'llari	101
3.3-§.	O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning o'rta va uzoq muddatli davrga mo'ljallangan muqobil senariyli prognozlari.....	112
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	138
	Xulosa.....	139
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	141

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global integratsiya va raqobatlashuv jarayonlarining keskinlashuvi sharoitida barcha mamlakatlar oldida turgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash vazifasining dolzarbligi oshib bormoqda. BMT ham oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlamoqda. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir emas. Shu bois bunday holatda oziq-ovqat sanoat korxonalariga xomashyo etkazib beruvchi qishloq xo'jaligini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash muhim sanaladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, "hozirda jahon aholisining 815 mln. nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga etadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat emaslik natijasida kelib chiqmoqda"¹. Ushbu holat oziq-ovqat tanqisligi sharoitida belgilangan ratsionlar asosida iste'molni tartibga solishning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda.

Jahonda tobora jadallashib borayotgan iqtisodiy taraqqiyotni resurslar bilan ta'minlash muammosi keskinlashuvi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Dunyo aholisining o'sib boruvchi daromadlariga munosib ravishda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga global talabning o'sishi, aholining o'sishi, urbanizatsiya va yuqori daromadlar bilan bog'liq ovqatlanishdagi o'zgarishlarning oziq-ovqat tizimiga ta'siri, nisbatan ko'proq resurslarni talab qiluvchi oziq-ovqat mahsulotlariga talabning ortishi, ularni qondirish uchun hosildorlik tendensiyalarining muvofiqlik darajasi, oziq-ovqat ratsionlarida belgilangan me'yorlarga amal qilish talablarining o'zgarishi, hozirgi murakkab sharoitda "oziq-ovqat tenglamasi", oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti, ijtimoiy

¹ <https://www.un.org/en/desa/world-population-reach-8-billion-15-november-2022>

tenglik, iste'mol talabi, iqtisodiy va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni tiklash mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy echimlarini topish bu borada olib borilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy mexanizmlarini tartibga solish borasidagi islohotlarning asosiy maqsadi "qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga etkazishdan iborat. Xususan, tumanlarni aniq mahsulot turini etishtirishga ixtisoslashtirish, qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish"² kabi vazifalar belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga etkazib beruvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, resurs-tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash orqali raqobatbardoshlikni oshirish va tarmoqda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida er va suv resurslaridan samarali

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон "2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони.

foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 26-apreldagi PQ-3680-son "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari va uni tartibga solish vositalari uzoq xorij olimlari J.Addison, G.Bekker, A.Brittain, L.Emmeridj, D.Fridman, P.Samuelson, S.Bryu, K.Makkonnell va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan³.

MDH mamlakatlari olimlari A.G.Efendiev, I.A.Bolotina, N.Baryshnikov, Ye.Cherdanseva, A.V.Chayanov, V.Demyanenko, N.P.Ketova, Ye.Serova, V.Ya.Uzun, R.I.Shniper, A.Yu.Yudanov, A.K.Yasterebov, A.Arhipov, N.N.Vashekin, Ye.N.Veduta, A.M.Jondarev, V.K.Senchagov va boshqalar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan⁴.

³ Addison J., Teixeira P. The Economics of Employment Protection. IZA Discussion Paper October No 381, 2001, -P. 19.; Becker G/ Investment in Human Capital // The Journal of Political Economy. 1962.№10 P.42; Brittain A. Full employment in industrialized countries.// Intern. Labour . rev. – Geneve, 1997. –Vol. 137, №3, -P. 293.; Emmerij L. The employment problem and international economy. //Ibid. – 1994.-Vol. 130, №4. - P. 458.; Freedman D. Employment and unemployment in the 1980's : Economic dilemmas and socio – political changes. //Intern. Labour. Rev. – Geneve, 1984. – Vol. 123, №5. - с.567.; Самуэльсон П. Экономика. В.2 т. – М.: МГП «АЛГОН», ВНИИСИ, 1992. 432 с.; Брю С., Макконнелл К. Экономика: принципы, проблемы и политика. В 2 т., пер. с англ. 11-го изд. Т. 1. – М.: «Республика», 1992. -с. 132-175,194-217; Т. 2. - с.156-174,293-310.

⁴ Эфендиев А.Г., Болотина И.А. Современное российское село. На переломе эпох и реформ. Опыт институционального анализа // Мир России. 2002, №4. -с.83, Барышников Н., Черданцева Е.. Воспроизводство в сельском хозяйстве: приоритеты и перспективы. Монография. Publisher Litres. ISBN 9785040084814, 2017 -С 203. Чаянов А. В. Основные идеи и формы организации крестьянской кооперации. М.: Наука, 1991. с.454.; Демьяненко В., Рылко Д. Проблемы формирования и функционирования рынка сельскохозяйственных земель. - М.: Сборник «Год планеты», 1998. - с.110; Кетова Н.П. Равновесии рынка земли и недвижимости // Макроэкономика. Учебно-методическое пособие. - М.: Ростов н/Д, 1997. – с. 56; Серова Е. АЦ АПЭ, 2000 (<http://management.edu.ru/db/msg/128017.html>); Узин В.Я. Приватизация земли и реорганизация сельскохозяйственных предприятий, идеи, механизмы, результаты, проблемы // Реорганизация сельскохозяйственных предприятий: их эффективность и устойчивое развитие материалы семинара. Голицыно. - М., 1999. - с. 76; Шнипер Р.И., Новоселов А.С. Региональные проблемы рынковедения: Экономический аспект. - Новосибирск, ВО «Наука», 1993. - с. 342; Юданов А.Ю., Аграрный рынок России //

O‘zbekistonda agrar sohada iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish masalalariga mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.Abdug‘aniev, V.R.Abdullaev, A.F.Xurramov, Ch.Murodov, F.Nazarova, F.T.Egamberdiyev, A.S.Altiev, D.Tadjibaeva, I.B.Rustamova, B.O.Dusmatov, Ch.P.Xo‘jageldiev, A.Abduvasiqov, F.B.Aminov, O.S.Jumaev, A.S.Raxmatullaev, A.X.Toshqulov, Q.I.Qunduzova, G.N.Maxmudova, H.P.Abulqosimov, T.S.Rasulov, A.A.Isajanov, S.R.Topildiyev va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rganilgan⁵. Biroq mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning nazariy asoslarini aynan iqtisodiy munosabatlarni

Микроэкономика теория и российская практика. -М.: ИТД «Кно Рус», 2002. - с. 132; Ястребова О.К. Введение в агробизнес. - М.: Изд. Московского Университета, 1994. - с.112. Архипов А., Экономическая безопасность: оценка, проблемы способы обеспечения // Вопросы экономики, №2, 1994. –с70-80; Вашекин Н.П., Экономическая безопасность: институциональный подход. —М., 2000. - с. 370 ; Ведута Е.Н. Стратегия экономическая политика государства. -М.: Акад. Проект, 2004. - с.300.; Жондарев А.М., Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник.. МИ.Я: изд. РАГС, 2001. –с.459; Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие / Книга четвертая. Ин-т Экономики РАН. -М.: ЗАО Финстатинформ, 2002. - с.128.

⁵ Абдуғаниев А. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Дарслик. - Т.: ТДИУ, 2004. – 304 б.; Абдуллаев В.Р. Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида аграр секторнинг экспорт салоҳиятини юксалтириш (пахта толаси экспорти мисолида). Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2001. – 45 б.; Хуррамов А.Ф. Ўтиш иқтисодиётини муносабатлар ва уларнинг аграр соҳадаги хусусиятлари. Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎЗМУ, 2005. – 42 б., Муроदov Ч. Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида бозор инфратузилмасининг ривожланиши (аграр сектор мисолида). Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2001. - 40.; Назарова Ф. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида Ўзбекистон аграр секторини ривожлантириш истиқболлари. Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2001. – 42 б.; Эгамбердиев Ф.Т. Региональные особенности развития агропромышленного производства в условиях либерализации экономики. Автореф. дис...докт. экон. наук. - Т.: НУУз, 2003. – 40 с.; Алтиев А.С. Ер ресурсларидан фойдаланиш тизимини тартибга солиш муаммолари. – Т.: Фан, 2018. Монография -274 б.;Таджибаева Д. Миллий иқтисодиётда институционал ўзгаришлар самарадорлигини оширишнинг назарий асосларини такомиллаштириш. (Ўзбекистон Республикаси аграр соҳасида мисолида) Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎзРИИВА, 2020. – 81 б.; Рустамова И.Б. Аграр соҳада инновацион жараёнлар самарадорлигини оширишнинг илмий услубий асослари. авт. ... и.ф.д. Т.: 2020. - 77 б.; Дусматов Б.О. Миллий иқтисодиётни модернизациялаш шароитида аграсаноат ишлаб чиқаришда инновацион инфратузилмани ривожлантириш. авт. ... и.ф.д. Т.:2022,- 53 б.; Хўжагелдиев Ч.П. Суғориладиган қишлоқ хўжалиги ерлари унумдорлигини оширишни рағбатлантириш. авт. ... и.ф.д. Т.: 2022,-56 б. Абдусоқов А.А. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида Тошкент вилояти аграр ишлаб чиқаришида таркибий ўзгаришлар самарадорлиги. Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.: ЎЗМУ, 2005. – 20 б.; Аминов Ф.Б. Ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг худудий хусусиятлари (Қашқадарё вилояти мисолида) Иқт. фан. ном. дис. автореф. - Т.: ЎЗМУ 2004. – 20 б.; Жумаев О.С. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари улгуржи бозорлари фаолиятини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий асослари: Иқт. фан. ном. дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2005. – 19 б.; Рахматуллаев А.С. Бозор иқтисодиёти шароитида қишлоқ хўжалигида ер муносабатларини такомиллаштириш (Қашқадарё вилояти мисолида). Иқт. фан. ном. дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2002. – 20 б.; Тошқулов А.Х. Қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодий фаолиятини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари (Сурхондарё вилояти мисолида). Иқт. фан. док. ... дис. Автореф. - Т.: “IMPRESS MEDIA” МЧЖ, 2021. – 79 б., Қундузова К.И. Турли хўжалик юритиш шаклидаги қишлоқ хўжалиги корхоналарида экинларни жойлаштиришни оптималлаштириш орқали ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш истиқболлари (Фарғона вилояти мисолида). Иқт. фан. ном. ... дис. автореф. - Т.: ЎзБИИТИ, 2005. – 22 б.; Махмудова Г.Н. Аграр соҳани инвестициялаш самарадорлигини ошириш йўналишлари. и. ф. н. илмий дар. ол. учун дисс. автореферати. - Т.: ЎзРБМА, 2010. – 21 б.; Абулқосимов Х.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма.-Т.; Akademiya, 2012. 351 б. Расулов Т.С. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўналишлари. Монография. – Т.: “ Fan va texnologiya”, 2017,-152 б.; Исажонов А.А. Конкуренентоспособность национальной экономики: мировой опыт и современные тенденции развития // Экономический вестник Узбекистана, 1999. №6; с.5.; Topildiyev S.R. Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. - Iqt. fan. dok. ... dis. - Т.: «Tipograff» MCHJ. 2023, -70 б.

tartibga solishdagi muammolar umumlashtirilgan ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga oid ilmiy nazariyalarni tadqiq etish asosida mualliflik yondashuvini ishlab chiqish;

milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va oziq-ovqat etishmovchiligini bartaraf etishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq etish;

xorijiy mamlakatlar tajribasini umumlashtirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning bozor va davlat boshqaruvi usullarining o'zaro samarali yo'llarini aniqlash;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda suv resurslaridan oqilona foydalanish yo'llarini aniqlash;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va klasterlashtirish tajribasini zamonaviy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlarini asoslash;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport tarkibiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash hamda ularning samaradorligini oshirish yo'llarini asoslash;

qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi soha va tarmoqlar faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, hodisalarga uzviylikda yondashish, statistik tahlil, matematik guruhlash, grafik

tasvirlash, kompleks yondashuv, tizimli va qiyosiy tahlil, segmentlash va prognozlash usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “oziq-ovqat xavfsizligi” kategoriyasining iqtisodiy mazmuni aholining faol hayot kechirishi uchun oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste‘mol qilish, har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash jarayonlarini barqaror va uzluksiz ravishda ta‘minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

aholining ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me‘yorlari asosida muayyan davrdagi ehtiyoji va amaldagi iste‘moli o‘rtasidagi tafovutni oziq-ovqat turi, kaloriyasi va sifati jihatidan aniqlash hamda oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqishda bevosita mutassadi tashkilotlar bilan mahalliy hokimiyat va mahallaning o‘zaro uyg‘un, faol va izchil faoliyatini ta‘minlash taklifi asoslangan;

“nisbiy ustunlik”, “virtual suv”, “xalqaro savdo”, “ekologik iqtisodiyot” kabi nazariyalarga ko‘ra asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘rtacha yillik suv sarfi me‘yorlari va energiya qiymatlaridan kelib chiqib, suv resurslari taqchilligi kuchayishi sharoitida suvni nisbatan ko‘p talab qiluvchi ekinlar va oziq-ovqat mahsulotlarini hamkor qo‘shni davlatlarda etishtirish hamda uning xomashyo va hosilini sotib (yoki boshqa mahsulotga ayirboshlab) olish orqali manfaatli kelishuvga erishish taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti bilan qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo‘jalik va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi o‘rtasidagi korrelyatsion-regression bog‘liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida agrar sohani 2030-yilgacha bo‘lgan davrda rivojlantirishning prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va oziq-ovqat etishmovchiligini bartaraf etishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlangan;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va klasterlashtirish tajribasini zamonaviy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlari asoslangan;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, saqlash va qayta ishlash tizimi, oziq-ovqat sanoatida Global GAP, ISO 2200 HACCP⁶ xalqaro sifat standartlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv, ilmiy qarashlar, usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari, monografik tahlillardan, xalqaro moliya institutlarining rasmiy ma'lumotlaridan va boshqa amaliy ma'lumotlardan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan nazariy-uslubiy taklif va tavsiyalardan oziq-ovqat xavfsizlinini ta'minlashni mexanizmini takomillashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni amalga oshirish bilan bog'liq maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda nazariy-metodologik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan amaliy taklif va tavsiyalardan respublikada ishlab chiqiladigan dasturiy hujjatlar ("yo'l xaritalari")ni tayyorlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiyot

⁶ Global G.A.P. (Good Agricultural Practice- Qishloq xo'jaligini yaxshilash amaliyoti) , HACCP (Hazard Analysis and Critical Control Point- nazorat nuqtalari va xavf -xatarlar tahlili), ISO 22000 oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimi

nazariyasi”, “Tarmoqlar iqtisodiyoti”, “Iqtisodiyot”, “Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish”, “Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar”, “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” kabi fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitish jarayonlarida ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “oziq-ovqat xavfsizligi” kategoriyasining iqtisodiy mazmunini aholining faol hayot kechirishi uchun oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste‘mol qilish, har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash jarayonlarini barqaror va uzluksiz ravishda ta‘minlash nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlarining “Iqtisodiyot” (tarmoqlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalarini uchun tavsiya etilgan “Iqtisodiy siyosatga kirish” darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 17-avgustdagi 05/15-01-53-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi iqtisodiyot nazariyasini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga hamda “Iqtisodiyot” mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalar, magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar, shuningdek, amaliyot xodimlarining aholining oziq-ovqat mahsulotlarini kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste‘mol qilish, har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash jarayonlarini barqaror va uzluksiz ravishda ta‘minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan “oziq-ovqat xavfsizligi” kategoriyasining iqtisodiy mazmuniga oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlanishiga hissa qo‘shgan;

aholining ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me‘yorlari asosida muayyan davrdagi ehtiyoji va amaldagi iste‘moli o‘rtasidagi tafovutni oziq-ovqat turi, kaloriyasi va sifati jihatidan aniqlash hamda oziq-ovqat xavfsizligi davlat

siyosatini ishlab chiqishda bevosita mutassadi tashkilotlar bilan mahalliy hokimiyat va mahallaning o‘zaro uyg‘un, faol va izchil faoliyatini ta’minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni 1-ilovasi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”ning “Sog‘lom iste’mol madaniyatini targ‘ib qilish bo‘yicha uzoq muddatli dastur ishlab chiqish” chora-tadbirini belgilashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 17-avgustdagi 05/15-01-53-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida respublika aholisining iste’mol ratsionini tartibga solish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash imkoni yaratilgan;

“nisbiy ustunlik”, “virtual suv”, “xalqaro savdo”, “ekologik iqtisodiyot” kabi nazariyalarga ko‘ra asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘rtacha yillik suv sarfi me‘yorlari va energiya qiymatlaridan kelib chiqib, suv resurslari taqchilligi kuchayishi sharoitida suvni nisbatan ko‘p talab qiluvchi ekinlar va oziq-ovqat mahsulotlarini hamkor qo‘shni davlatlarda etishtirish hamda uning xomashyo va hosilini sotib (yoki boshqa mahsulotga ayirboshlab) olish orqali manfaatli kelishuvga erishish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoniga 1-ilova “O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi”da inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 17-avgustdagi 05/15-01-53-son ma’lumotnomasi). Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish natijasida qo‘shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo‘jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida ikki tomonlama hamkorlikda foydalanishga erishilgan;

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti bilan qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida agrar sohani 2030-yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 17-avgustdagi 05/15-01-53-son ma'lumotnomasi). Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish natijasida uzoq muddatli istiqbolda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti bilan qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 7 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari dissertant e'lon qilgan 12 ta ilmiy maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalarda o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil etadi.

I-BOB. GLOBAL IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI TA'MINLANISHINING KONSEPTUAL ASOSLARI

1.1-§. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga bag'ishlangan ilmiy qarashlarning rivojlanishi

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlari jadallashtirilgan sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammolarini ilmiy tadqiq etish tobora keng tadqiq etilmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi — aholining barcha qatlamlarini sog'lom va faol hayot kechirishlari uchun jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning iste'mol ehtiyojlarini to'liq qoplash, xavfsizlik ko'rsatkich me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash, yuqori oziq-ovqat qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sharoitlarini kafolatlovchi davlatning iqtisodiy holatidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad -iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur”⁷.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bir necha asrlar oldin yuzaga kelgan. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonlarini tadqiq etishimiz uchun tarixga nazar solsak klassik iqtisodchilar va ularning qishloq xo'jaligiga oid qarashlari XVIII-asr va XIX-asr boshlarida faol bo'lib, ular qishloq xo'jaligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan asosiy nazariyalarni ishlab chiqdilar.

Klassik maktab namoyondalari XVIII-asr va XIX-asr boshlarida faol bo'lib, ularning ayrimlarining qishloq xo'jaligiga qarashlari:

Adam Smit (1723-1790 yy) “Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o'rganish” (1776-yilda) asarida Qishloq xo'jaligiga oid quyidagi fikrlarni bildiradi. Jumladan: Mehnat taqsimoti-ixtisoslashuv va mehnat taqsimotining muhimligini ta'kidladi, bu esa hosildorlikni oshirish uchun qishloq xo'jaligida qo'llanilishi mumkin. U o'z manfaatlariga asoslangan bozorlar samaradorligiga ishongan, bu

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожатномаси. 2018 йил 28 декабрь маърузаси. “Халқ сўзи” № 271-272 сонли 2018 йил 29 декабрь.

yerga foyda ko‘rgan fermerlar resurslarni samarali taqsimlaydi. Qishloq xo‘jaligini ishchi kuchi uchun zarur oziq-ovqat va boshqa tarmoqlar uchun xom ashyo bilan ta‘minlaydigan asosiy tarmoq sifatida ko‘rdi⁸.

David Rikardo (1772-1823 yy) “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish tamoyillari” (1817-yilda) asarida quyidagi qishloq xo‘jaligiga oid fikrlarni bildiradi. Jumladan: “Ijara nazariyasi” iqtisodiy renta tushunchasini, xususan, qishloq xo‘jaligida kiritdi. U renta tuproq unumdorligidagi farqlar tufayli yuzaga keladi, unumdor yerlar yesa yuqori renta hosil qiladi, deb ta‘kidladi. Daromadning kamayishi qonuni: U belgilangan miqdordagi yerga ko‘proq mehnat va kapital qo‘llanilsa, qo‘shimcha mahsulot (marjinal daromad) oxir-oqibat kamayadi, deb taklif qildi. Qiyosiy ustunlik: Rikardoning qiyosiy ustunlik nazariyasi mamlakatlarni arzonroq imkoniyatlarga ega bo‘lgan tovarlarni, shu jumladan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashishini taklif qildi⁹.

Tomas Maltus (1766-1834 yy) “Aholi tamoyili bo‘yicha insho” (1798-yilda) asarida qishloq xo‘jaligiga oid fikrlarini ilgari suradi. Jumladan: Maltus nazariyasi: aholi o‘sishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidan yuqori bo‘lib, ochlik va qiyinchilik davrlariga olib keladi. U qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi aholi sonining ko‘payishi bilan kurashish uchun kurash olib borishiga ishonadi. Aholini tekshirish: Maltusning fikriga ko‘ra, oziq-ovqat ta‘minoti aholi o‘shini cheklaydi, bu "ijobiy tekshiruvlar" (ochlik, kasallik) va "profilaktik tekshiruvlar" (ma'naviy cheklash, kechiktirilgan nikoh) bilan nazorat qilinishi mumkin¹⁰.

Jon Styuart Mill (1806-1873 yy) “Siyosiy iqtisod asoslari” (1848-yilda) nomli asarida u yerga egalik qilish: Mill yerga egalik qilishning turli tizimlari va ularning qishloq xo‘jaligi hosildorligiga ta‘sirini muhokama qildi. U yerga sarmoya kiritish va obodonlashtirishni rag‘batlantirish uchun mulk huquqlarini himoya qilishni asosladi¹¹.

Shu bilan birga hosildorlik va innovatsiyalar: Milliy qishloq xo‘jaligidagi texnologik takomillashtirish va innovatsiyalar daromadning kamayishi qonuni tomonidan qo‘yilgan cheklovlarni yengib o‘tish rolini tan oldi. U qishloq

⁸ <https://www.econlib.org/library/topics/highschool/divisionoflaborspecialization.html>

⁹ McDonald, John. (2018). Mr. Ricardo's Theory of Land Rent. *Journal of Real Estate Practice and Education*. 21. 1-15. 10.1080/10835547.2018.12091774.

¹⁰ https://www.economicsonline.co.uk/managing_the_economy/what-is-the-malthusian-theory-of-population.html/

¹¹ https://en.wikipedia.org/wiki/Land_Tenure_Reform_Association

xo'jaligining kooperativ tizimlarini qo'llab-quvvatlagan, bu yerda fermerlar o'zaro manfaatlar uchun birgalikda ishlagan, bu esa resurslardan yaxshiroq foydalanish va hosildorlikni oshirishga olib kelishi mumkin edi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini tahlil qiladigan bo'lsak uzoq xorij olimlardan Klay E. 1970-yillarda oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasi dinamik bo'lib, u doimiy ravishda yangi o'lchovlar va ortiqcha tahlil darajalarini o'z ichiga oladi. Oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasining bu davom etayotgan evolyutsiyasi tadqiqot va davlat siyosatining turli sohalarida konsepsiyaning qiyinchiliklarini kengroq e'tirof etishdan dalolat beradi, chunki oziq-ovqat xavfsizligi muammosi jahon oziq-ovqat inqirozi birinchi yarmida sodir bo'lgan vaqtdan boshlab uzoq tarixga ega.

Kollier P.¹² ning fikriga ko'ra oziq-ovqat xavfsizligi zo'ravonlikning qo'zg'atuvchisi bo'lib xizmat qiladi va oqibatda "mojarolar tuzog'i" deb nomlanuvchi siklik shaklga hissa qo'shadi. Oziq-ovqat xavfsizligining mavjudligi siyosiy barqarorlikni saqlash uchun juda muhim va tartibsizliklarning turli shakllari, jumladan, hukumat muvaffaqiyatsizligi, norozilik namoyishlari, tartibsizliklar, jamoa zo'ravonliklari va fuqarolik mojarolarining yuqori xavfi bilan bog'liq. Aksincha, shiddatli to'qnashuvlar ko'pincha oziq-ovqat xavfsizligini kuchaytiradi, to'yib ovqatlanmaslik va og'ir holatlarda ocharchilikka olib keladi. Oziq-ovqat xavfsizligi mojarolarni kuchaytirishi mumkin bo'lsa-da, uning ta'siri vaziyatga qarab o'zgarib turadi, eng aniq aloqalar mamlakatlarda kuzatiladi, shuning uchun zaif bozorlar va yetishmayotgan siyosiy institutlar bilan tavsiflanadi.

Tomas N.¹³ ning tadqiqotiga ko'ra oziq-ovqat xavfsizligi sog'lom va faol turmush tarzi uchun parhez talablari va afzalliklarini qondirish uchun zarur bo'lgan ko'p, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat ta'minotiga jismoniy, ijtimoiy yoki iqtisodiy kirishning yetarli emasligi bilan tavsiflanadi.

Xuddi shunday, BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan ta'riflanganidek, oziq-ovqat xavfsizligi odamlarning normal o'sish, rivojlanish va faol va sog'lom hayotni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan xavfsiz va

¹² Collier, P. (2003). *Breaking the conflict trap: Civil war and development policy*. World Bank Publications.

¹³ Thomas, H. C. (Ed.). (2006). *Trade reforms and food security: country case studies and synthesis*. Food & Agriculture Org

to'yimli oziq-ovqat mahsulotlaridan yetarli miqdorda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan holatlarni anglatadi¹⁴.

Tarasuk V. va Vogt J.¹⁵ larning ilmiy izlanishlarida oziq-ovqat xavfsizligining ta'minlanmaganligi eng qashshoq odamlar va imtiyozlarga tayanadiganlar chegarasidan tashqariga chiqadi. Hatto kam maosh oluvchilar, ayniqsa barqaror uy-joyga ega bo'lmaganlar, o'rtacha daromadga ega bo'lgan shaxslar ipoteka yoki kredit to'lovlari kabi ko'tarilgan xarajatlar yoki to'satdan kasallik yoki ishsizlik kabi kutilmagan holatlar tufayli oziq-ovqat xavfsizligiga duch kelishi mumkin.

Napoli M. va boshqalarning¹⁶ tadqiqotlarida esa oziq-ovqatning inson salomatligiga ta'siri va mamlakatning iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga ta'sirini hisobga olsak, oziq-ovqat xavfsizligi inson hayotining asosiy jihati hisoblanadi. U to'rtta asosiy ustunni iste'molga layoqatlilik, mavjudlik, foydalanish va barqarorlikni o'z ichiga oladi:

Xalqaro oziq-ovqat siyosati tadqiqotlar instituti ma'lumotlariga ko'ra (IFPRI)¹⁷ odamlar faol va sog'lom turmush tarzini saqlab qolish uchun ularning dietaga bo'lgan talablari va afzalliklariga mos keladigan yetarli darajada xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat olish uchun jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy vositalarga ega bo'lganda oziq-ovqat xavfsizligiga erishadilar.

Lang T. va Barling D.¹⁸ larning ilmiy izlanishlariga ko'ra oziq-ovqat xavfsizligiga oid ikkita asosiy paradigmani ajratib ko'rsatadi: birinchisi oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishni to'yinmagan iste'mol va ochlikning asosiy yechimi sifatida ta'kidlaydi, ikkinchisi esa, zamonaviyroq nuqtai nazardan, ijtimoiy va ekologik masalalarni birinchi o'ringa qo'yadi, bu bilan kurashish orqali oddiy ishlab chiqarishdan tashqari keng ko'lamli masalalarni qamrab olish zarurligini ko'rsatib o'tadi. Fikrimizcha birinchidan taklif asosan qishloq xo'jaligi muammolari atrofida, ikkinchidan esa umumiy oziq-ovqat tizimlari bilan bog'liq.

¹⁴ FAO, IFAD. (2013). WFP, The State of Food Insecurity in the World 2013-The Multiple Dimensions of Food Security. FAO, Rome.

¹⁵ Tarasuk V., Vogt J.(2009). Household food insecurity in Ontario. Can J Public Health. 100(3): 184-8.

¹⁶ Napoli, M., De Muro, P., & Mazziotta, M. (2011). Towards a food insecurity Multidimensional Index (FIMI). Master in Human Development and Food Security

¹⁷ IFPRI (2019). Conflict and Migration, Washington, DC: International Food Policy Research Institute. Retrieved from: <http://www.ifpri.org/topic/conflictand-migration>

¹⁸ Lang, T.; Barling, D. Food security and food sustainability: Reformulating the debate. Geogr. J. 2012, 178, 313–326.

Garnet T., Appleby M.S.¹⁹ va boshqalar esa oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilishning bir yo‘li qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini atrof-muhit ta‘sirini minimallashtiradigan va oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror ishlab chiqarish imkoniyatlarini himoya qiladigan usullar bilan oshirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu barqaror faollashtirish strategiyasi global miqyosda ko‘plab hukumatlar tomonidan siyosiy muammo sifatida qabul qilingan, ammo u ishlab chiqarishga haddan tashqari e‘tibor qaratilishi yoki muvofiqlik yo‘qligi uchun ham tanqidlarga sabab bo‘ldi.

Guine R., Pato M. Va boshqalar²⁰ olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, oziq-ovqat xavfsizligining to‘rtta ustuni - mavjudlik, iste‘mol qilish imkoniyati, foydalanish va barqarorlik - iqlim o‘zgarishi kabi qo‘shimcha omillarni o‘z ichiga olgan holda qayta ko‘rib chiqilishi zarurligini ta‘kidladi.

Klap J., Moseley V. Va boshqalar²¹ ochlik va to‘yib ovqatlanmaslikka ta‘sir ko‘rsatadigan kengroq dinamikani o‘z ichiga olgan yana ikkita o‘lchovni - barqarorlik va agentlikni jalb qilish uchun mavjud oziq-ovqat xavfsizligi ta‘rifini rasman yangilash vaqti kelganligini ta‘kidladi²².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida iqtisodiy xavfsizlik, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda davlat subsidiyalari ulushi G.V.Bespaxotniy va I.G.Ushachevlar²³ tomonidan tahlil etilgan.

Minakov I.A. tadqiqotlariga ko‘ra, AQSH va G‘arbiy Yevropada bojxona va kompensatsiya to‘lovlarini belgilash hisobiga milliy oziq-ovqat bozorini himoya qilish mexanizmi yaratilgan. Bu choralar milliy va jahon narxlari o‘rtasidagi farqni qoplashga va qishloq xo‘jaligining daromadlilikini oshirishga qaratilgan.

Iqtisodiy xavfsizlik va oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini Alimjanova M.G., Anishenko A.N., Bekmuxamedova K.M., Jondarev A.M., Goncharenko L.P., Kaygorodsev A.A., Kolosov A.V., Krilatix E.N., Mazlova V.Z., Mejonova N.V., Nazarenko B.I., Uskova T.V., Furs I.N., Arxipov A., Vashekin N.N., Veduta E.N.,

¹⁹ Garnett, T.; Appleby, M.C.; Balmford, A.; Bateman, I.J.; Benton, T.G.; Bloomer, B.; Dawkins, M.; Dolan, L.; Fraser, D.; et al. Sustainable intensification in agriculture: Premises and policies. *Science* **2013**, *341*, 33–34]

²⁰ Guiné, R.d.P.F.; Pato, M.L.d.J.; Costa, C.a.d.; Costa, D.d.V.T.A.d.; Silva, P.B.C.d.; Martinho, V.J.P.D. Food Security and Sustainability: Discussing the Four Pillars to Encompass Other Dimensions. *Foods* **2021**, *10*, 2732. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]

²¹ Clapp, J.; Moseley, W.G.; Burlingame, B.; Termine, P. The case for a six-dimensional food security framework. *Food Policy* **2021**, *106*, 102164. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]

²² HLPE. Food Security and Nutrition: Building a Global Narrative Towards 2030. 2020. Available online: <https://www.fao.org/3/ca9731en/ca9731en.pdf> (accessed on 1 November 2022).

Dzliev M.I., Jonlapov A.M., Kalosov A.V., Oleynikov E.A., Senchagov V.K., Spanov M.²⁴ va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Ularning asarlarida mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, shu jumladan, oziq-ovqat xavfsizligini global, milliy va xududiy darajada baxolash va ta'minlashning nazariy-uslubiy va amaliy jixatlari batafsil yoritilgan.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammolarini Abulqosimov H.P.²⁵ ilmiy tadqiqotida bu masalalar mamlakat, korxonalar, shaxs nuqtai nazaridan, ichki va tashqi, xo'jalik faoliyatining pul moliya sohasidagi iqtisodiy xavfsizlikni va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Abulqosimov X.P., Rasulov T.S.²⁶ Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jixatlari va yo'nalishlarini, Abdug'aniev O.A.²⁷ Mintaqaning oziq-ovqat bilan ta'minlanganligini baxolash usullari va mezonlarini, Saidaxmedova N.I.²⁸ tomonidan "Bozor iqtisodiyoti sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari va yo'nalishlari"ga, Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A.²⁹ Agrar siyoyosat va oziq-ovqat xavfsizligini, Topildiyev S.R.³⁰ "Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish", Berkinov B.B., Axmedov U.K. Axolini oziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan iste'mol talablari mavzularida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

²⁴ Анищенко А.Н., Ускова Т.В., Семенов Р.Ю., Чекинский А.Н. Продовольственная безопасность региона. - М.: ИСЭРТ РАН, 2014. - 140 с.; Кайгородцев А.А. Экономическая и продовольственная безопасность Казахстана. Вопросы теории, методологии, практики. - Усть Каменогорск, 2006. - 384 с.; Крылатых Э.Н., Мазлова В.З., Межонина Н.В. Национальная экономика: обеспечение продовольственной безопасности в условиях интеграции: Монография /- М.: НИЦ ИНФРА-М, 2016. - 238 с.; Назаренко В.И. Продовольственная безопасность (в мире и в России). - М.: Памятники исторической мысли, 2011. - 286 с.; Фурс И.Н. Продовольственная безопасность Бело-руси: монография. - Мн.: ИСПИ, 2000. - 168 с.

Архипов А., Тордицкий А., Михайлов Б. Экономическая безопасность: оценка, проблемы, способы обеспечения // Вопросы экономики, №2, 1994; Вашенкин Н.П., Дзлиев М.И., Урсул А.Д. Экономическая безопасность: институциональный подход. —М., 2000; Жондарев А.М., Петров А.А. Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. М., изд. РАГС, 2003; Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие / Книга четвертая. Ин-т Экономики РАН. -М.: ЗАО Финстатинформ, 2002; Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность. - Ростов н/Д: Феникс, 2007; Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. - М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М, 2009. в башқалар.

²⁵ Абулқосимов Ҳ.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма.-Т.: Академија, 2012 – 29.

²⁶ Абулқосимов Ҳ.П., Расулов Т.С. Озик-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўналишлари. Монография. - Т.: " Fan va texnologiya", 2017. - 152 бет;

²⁷ Абдуғаниев О.А. Минтақанинг озик-овқат билан таъминланганлигини баҳолаш усуллари ва мезонлари // "Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. №3. Май-июнь 2018 йил. //www.iqtisodiyot.uz;

²⁸ Саидахмедова Н.И.. "Бозор иқтисодиёти шароитида озик-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўналишлари" Иқт. фан. док. ... дис. автореф. - Т.:, 2020. – 78 б.;

²⁹ Саидова Д.Н., Рустамова И.Б., Турсунов Ш.А. Аграр сиёёсат ва озик-овқат хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. - Т.: УзФА Асосий кутубхонаси босмахонаси нашриёти, 2016. - 258 бет.

³⁰ Topildiev S.R. Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. - Iqt. fan. dok. ... dis. - Т.: «Tipograff» MCHJ. 2023

1.1.1–jadvali.

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasiga berilgan ta’riflar³¹

Mualliflar	Ta’rifning mazmuni	E’tiborli yoki munozarali jihati
E.V.Serova ³²	Oziq-ovqat xavfsizligi me’yoriy hayot tarzini o’tkazish uchun zarur bo’lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan aholining asosiy qismini ta’minlash darajasini bildiradi.	1) me’yoriy hayot tarzi tushunchasi mavhum hisoblanadi; 2) barcha aholini emas, balki aholining asosiy qismini ta’minlash munozarali hisoblanadi
V.S.Balabanov, Ye.N.Borisenko ³³	Oziq-ovqat xavfsizligi – ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sog’liq uchun bezararligini ta’minlagan holda mamlakatning oziq-ovqatga bo’lgan talabini muayyan davrda iste’mol va zaxiralarni yaratish asosida qondirilishini kafolatlashdir.	Mamlakatning oziq-ovqatga bo’lgan talabi tushunchasi aholining oziq-ovqatga bo’lgan talabi tushunchasini aynan ifodalay olmaydi
E.B.Naydanova ³⁴	Oziq-ovqat xavfsizligi – davlat tomonidan aholining joriy va favqulodda ehtiyojlarini mamlakat ichidagi ishlab chiqarish resurslari hisobidan oziq-ovqat bilan ta’minlash qobiliyati.	Aholining oziq-ovqatga bo’lgan ehtiyojlarini mamlakat ichidagi ishlab chiqarish resurslari hisobidan ta’minlanishi munozarali hisoblanadi
H.P.Abulqosimov ³⁵	Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o’zini o’zi, mustaqil ta’minlashga qodirligini ifodalaydi. Shuningdek, oziq-ovqat importiga o’ta bog’liqlikdan xalos bo’lganligini anglatadi.	1) aholining barcha emas, balki asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o’zini o’zi, mustaqil ta’minlashi e’tiborga molik hisoblanadi; 2) oziq-ovqat importiga o’ta bog’liqlikdan xalos bo’lish e’tiborga molik hisoblanadi;
T.S.Rasulov ³⁶	Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismidir.	Ta’rif umumiy tavsif kasb etadi
D.N.Saidova ³⁷	Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ichki imkoniyatlardan foydalangan holda ta’minlanishidir.	Yetarli darajada ichki imkoniyatlardan foydalangan holda ta’minlanishi e’tiborga molik hisoblanadi
Muallif ta’rifi	Oziq-ovqat xavfsizligi – aholining faol hayot kechirishi uchun oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste’mol qilish, har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash imkonining ta’minlanishidir.	1) aholining faol hayot kechirishini ta’minlash; 2) oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste’mol qilish; 3) har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlash; 4) mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash imkonini ta’minlash e’tiborga molik hisoblanadi

³¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³² Серова Е.В. К вопросу о продовольственной безопасности. – <http://www.iet.ru/>.

³³ Балабанов В.С., Борисенко Е.Н. Продовольственной безопасности: международные и внутренние аспекты. – М.: Экономика, 2002. – С. 22

³⁴ Найданова Э.Б. Методологические подходы к определению продовольственной безопасности как генеральной цели аграрной политики. // Современные проблемы науки и образования, 2015. – № 1 – 6 с.

³⁵ Абулқосимов Х. П., Абулқосимов М.Х. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш омиллари. – Т.: Иқтисод ва молия, 2015. 2-сон. - 20 б.

³⁶ Расулов Т.С. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш йўналишлари.// Ўзбекистонда озиқовқат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий асослари ва устувор йўналишлари. – Т., 2016. – 10б.

³⁷ Саидова Д.Н. Аграр сиёёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. - Т.: УзФА Асосий кутубхонаси босмахонаси нашриёти, 2016. - 258 бет.

Fikrimizcha, mamlakatlarning iqtisodiy va demografik salohiyatidan samarali foydalanish zaruriyati bilan bog‘liq o‘zgarishlar asosida davlat tomonidan oziq-ovqat bozorini tartibga solish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, milliy bozorni yaxlit holda rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarida alohida mintaqaning demografik tuzilishi va ishlab chiqarish imkoniyatlarini baholash dolzarblik kasb etadi.

Ikkinchidan, oziq-ovqat xavfsizligi darajasi zamonaviy talablar uchun yetarli emasligini tan olish lozim. Bu esa oziq-ovqat zaxiralarini shakllantirish va hukumatning belgilagan qoidalari asosida mintaqalar tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqishni talab etadi.

Uchinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari importi bir tomondan, oziq-ovqat mahsulotlari taqchilligini bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoyalash masalasi oqilona tarzda hal etilishi bilan bog‘liq.

Ayni paytda oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining yagona ta’rifi mavjud emas va ko‘plab tadqiqotchilar «oziq-ovqat mustaqilligi», «oziq-ovqat muammosi», «oziq-ovqat ta’minoti» kabi talqinlarda o‘zlarining tuzatishlari va qo‘shimchalarini kiritib kelmoqdalar. Shu jihatdan, oziq-ovqat xavfsizligi nazariyasi hozirgacha to‘liq yoritib berilmagan hamda uning mohiyatini tushuntirish bo‘yicha turlicha yondashuvlar mavjud.

Demak, yuqoridagi nazariy qarashlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, oziq-ovqat xavfsizligi - aholining faol hayot kechirishi uchun oziq-ovqatni belgilangan kunlik ratsionlar asosida zarur miqdor va sifatda iste’mol qilish, har tomonlama jismoniy va ijtimoiy rivojlanish, mehnat qobiliyatini minimal darajada tiklash va uzoq umr ko‘rishni ifodalaydi.

1.2-§. Mamlakatda yaratilgan oziq-ovqat mahsulotlari va ratsional ovqatlanish normativlari o‘rtasidagi nisbiy tahlili.

Xozirgi kunda jahonda geosiyosiy vaziyat bilan bog‘liq tebranishlar jiddiy tus olib, oziq-ovqat xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlar tobora ortayotgani shunchaki vahimali gaplar emas. Ma’lumotlarga ko‘ra, sayyoramizda 2,3 milliard odam oziq-ovqat xavfsizligi mo‘tadil yoki o‘tkir mavjud bo‘lmagan sharoitda yashamoqda. Bunda nafaqat ochlik va suvsizlik, balki mavjud oziq-ovqat mahsulotlarining sifatsiz va iste’molga yaroqsiz ekani ham nazarda tutiladi. Ushbu insonlarning 556 million nafari yoki 25 foizi esa Osiyo qit’asida yashaydi.

Muammoning asosiy yechimlaridan biri, albatta, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, yer maydonlaridan unumli foydalanish, yerdan olinadigan hosildorlikni oshirib borish orqali aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashdan iborat. Mamlakatimiz geografik joylashuvi va iqlimi jihatidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga qulay, agrar tarmoqqa iqtisoslashgan, tuprog‘imiz unumdorligi uchun bu borada xavotirimiz kam. Biroq hech narsa o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Ayniqsa, tabiiy ne‘matlar abadiy emasligi, suv taqchilligi muammosi dunyo xalqlari qatori bizga ham xavf solayotgan bir sharoitda mavjud imkoniyatlarimizdan eng yuqori darajada foydalanishimiz zarur.

Shu bois, agrar tarmoqni rivojlantirish, unga ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish asosiy vazifalarimizdan biriga aylangan. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi sohasi ulkan o‘zgarishlarga yuz tutdi. Xususan, qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish va unumdorligini oshirish, foydalanishga yaroqsiz ekin maydonlarida agrotexnik tadbirlar olib borish orqali qayta foydalanishga kiritish, lalmi yerlarni o‘zlashtirish ishlariga jiddiy e’tibor qaratilyapti.

Ozuqabop mahsulotlar yetishtirish, agrar sohada aholi bandligini ta’minlash uchun o‘tgan davrda 200 ming gektar yer ajratilgani hamda 500 ming gektar qo‘shimcha yerlar foydalanishga kiritilgani ichki bozorda narx-navoni barqaror saqlashga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, amalga oshirilayotgan izchil islohotlar samarasida yerga, mehnatga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Endi, qishloq xo‘jaligi zamonaviy tarmoqqa, unda ish yuritayotganlar esa ishbilarmon dehqon va

fermer, agrar tadbirkorga aylandi. Sohadan daromad olish ko'rsatkichlari ham ancha yuqori.

O'zbekiston Respublikasi aholisining yoshiga, jinsiga va kasbiy faoliyati guruhlari uchun sog'lom ovqatlanishni ta'minlashga qaratilgan o'rtacha kunlik ratsional ovqatlanish normativlari SanQvaN № 0007-20 sonli sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarida ratsional ovqatlanish normativlari inson mehnatining og'irligi va kasb guruhlari asosida, mamlakatimizning iqlimi va ovqatlanishdagi milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda, quvvatga va asosiy oziq-ovqat moddalariga bo'lgan fiziologik extiyojini qondirishga qaratilgan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1-guruh – asosan aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi shaxslar, yengil jismoniy faollik, talabalar, ijtimoiy fanlarga oid mutaxassisliklar, EHM operatorlari, o'qituvchilar, dispetcherlar, pult boshqaruvchilar, hisobchilar, kotib(a)lar JFK (jismoniy faollik koeffisenti) – 1,4). Bir kecha-kunduzlik quvvat sarfi 1800-2450 kkal;

2-guruh–yengil mehnat bilan shug'ullanuvchilar – transport haydovchilari, konveyer ishchilari, tikuvchilar, savdo xodimlari, radioelektron sanoati ishchilari, agronomlar, hamshiralar, kichik tibbiy xodimlar, aloqalar sohasida xizmat ko'rsatuvchilar, JFK–1,6: bir kecha-kunduzlik quvvat sarfi 2100-2800 kkal;

3-guruh – o'rta og'irliklardagi mehnat, chilangarlar, sozlovchilar, stanok ishchilari, burg'ulovchilar, ekskavator haydovchilari, traktorlar, kombaynchilar, avtobus xaydovchilari, jarroxlilar, tekstil kombinati ishchilari, etikdo'zlar, temir yo'lchilar, metallurgiya kombinati ishchilari, kimyo sanoati ishchilari, umumiy ovqatlanish muassasalari ofitsiantlari, oshpaz va ishchilari JFK–1,9. Bir kecha-kunduzlik quvvat sarfi 2500 – 3300 kkal;

4-guruh–og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi ishchilar, qurilish ishchilari, burg'ulash yordamchilari, kon qazuvchi ishchilar, paxtakorlar (yig'im terimdan tashqari), qishloq xo'jaligi mexanizatorlari, doiyalar, ko'chiruvchilar, sabzavotchilar, duradgorlar, metallurklar, quyish ishchilari JFK–2,2. Bir kecha-kunduzlik quvvat sarfi 2850 - 3850 kkal;

5-gurux–o'ta og'ir jismoniy mehnat, juda yuqori jismoniy faollik bilan

ishlovchilar JFK – 2,4 - og‘ir mexnat bilan shug‘ullanuvchi qishloq xo‘jaligi ishchilari, yig‘im-terimga jalb qilingan paxtakorlar, kesuvchilar, beton ishchilar, ekskavatorlarda ishlovchilar, mexanizatsiyalashmagan mehnat yuklagichlari, konchilar. Bir kecha-kunduzlik quvvat sarfi 3750-4200 kkal etib belgilangan³⁸.

Sog‘lom ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, bunda to‘yingan yog‘li mahsulotlar, osh tuzi, shakar va yog‘li mahsulotlarning o‘rnini bosuvchi kerakli mikro-makroelementlar va oqsilga boy mahsulotlarning (meva-sabzavot, dukkakli, rezavor, baliq, sutli mahsulotlar, asal va boshqalar) iste‘molini oshirishni targ‘ib qilish;

sog‘lom ovqatlanish amaliyotlarini ko‘rib chiqish va aholining tushuncha va bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash borasidagi birlamchi tadqiqotlar va izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan.

1.2.1- jadval

Mehnat resurs tarkibiga kirmagan va mehnatga layoqatsiz aholi uchun tavsiya qilingan bir yillik ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me‘yorlari³⁹ (Donli mahsulotlar, kilogramda bir yilda)

Mahsulotlar	Bolalar	Qizlar	O‘g‘illar	Erkaklar		Ayollar		
	(1-13) yosh o‘rtacha	(14-17) yosh	(14-17) yosh	(18-59) yosh	>60	(18-54) yosh	Homilador va emizikli	>55
Dukkaklilar	5,0	5,4	5,4	5,4	5,4	5,4	5,4	5,4
Bug‘doy uni	5,0	7,3	7,3	7,3	7,3	7,3	7,3	7,3
Guruch	5,4	14,6	14,6	18,2	14,6	16,4	18,2	14,6
Bug‘doy noni	51	54,7	73	91	73	73	80	54,7
Makaronlar	7,3	10,9	12,7	16,4	10,9	10,9	7,3	5,4

1.2.1- jadvaldan ko‘rinib turibdiki donli mahsulotlarni 1-13 yoshgacha bo‘lgan bolalardan toki 18-59 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va homilador va emizikli

³⁸ Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг ёшига, жинсига ва касбий фаолияти гуруҳлари учун соғлом овқатланишни таъминлашга қаратилган ўртача кунлик рационал овқатланиш нормативлари СанҚваН № 0007-20 сонли нормативи. 2020 йил.

³⁹ Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг ёшига, жинсига ва касбий фаолияти гуруҳлари учун соғлом овқатланишни таъминлашга қаратилган ўртача кунлик рационал овқатланиш нормативлари СанҚваН № 0007-20 сонли нормативи. 2020 йил. 1-илова.

ayollarni bir yillik ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlarida o'rtacha 1-13 yoshgacha dukkaklik ekinlar 5,0- kilogram, 5,4-kilogram, guruch, bug'doy noni 51,1-kilogram va makaronlar 7,3-kilogramni tashkil etsa, 18-59 yoshli erkaklar dukkaklik ekinlar 5,4- kilogram, bug'doy uni 7.3- kilogram, 18,2-guruch, bug'doy noni 91- kilogram va makaronlar 16,4- kilogram iste'mol qilishi kerak bo'lsa, 18-54 yoshli ayollar, xomilador va emizikli ayollar dukkaklik mahsulotlarni 5,4- kilogram, bug'doy uni-7,3 kilogram, guruch-16,4 kilogram, bug'doy noni 73- kilogram va makaronlar 10,9- kilogramni iste'mol qilinishi lozim bo'ladi.

1.2.2- jadval

Mehnatga layoqatsiz aholi uchun tavsiya qilingan bir yillik ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlari⁴⁰ (meva va poliz mahsulotlari, kilogramda bir yilda)

Mahsulotlar	Bolalar	Qizlar	O'g'illar	Erkaklar		Ayollar		
	(1-13) yosh o'rtacha	(14-17) yosh	(14-17) yosh	(18-59) yosh	>60	(18-54) yosh	Homilador va emizikli	>55
Kartoshka	40	73	73	73	54	54	73	54
Bodring	9,4	16	18	18	14	18	18	14
Pomidor	8,7	14	18	18	14	18	18	14
Sabzi	12	16	18	18	18	18	21	18
Piyoz	7,3	10	10	14	10	14	18	14
Poliz mahsulotlari	13	18	18	18	14	18	18	14
Qovoq	8,7	10	10	10	10	10	10	10
Mevalar	7,0	9,1	9,1	9,1	9,1	9,1	9,1	8,0
Uzum	8,3	1,4	1,4	1,0	1,0	1,0	1,4	1,0
Sitrus	2,9	5,4	5,4	5,4	3,6	5,4	5,4	5,4

1.2.2- jadvaldan ko'rinib turibdiki meva va poliz mahsulotlarni 1-13 yoshgacha bo'lgan bollardan toki 18-59 yoshgacha bo'lgan erkaklarni bir yillik o'rtacha ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlarida 1-13 yoshdagi bolalar

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг ёшига, жинсига ва касбий фаолияти гуруҳлари учун соғлом овқатланишни таъминлашга қаратилган ўртача кунлик рационал овқатланиш нормативлари СанҚваН № 0007-20 сонли нормативи. 2020 йил. 1-илоvasи асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

kartoshka-40 kilogram, bodring-9,4 kilogram, pomidor-8,7 kilogram, sabzi-12 kilogram, piyoz-7,3 kilogram, poliz mahsulotlari-13 kilogram, qovoq-8,7 kilogram, mevalar-7,0 kilogram, uzum-8,3 kilogram, sitrus-2,9 kilogram iste'mol qilishi lozim bo'lsa, 18-59 yoshli erkaklar kartoshka-73 kilogram, bodring-18 kilogram, pamidor-18 kilogram, sabzi-18 kilogram, piyoz-10 kilogram, poliz mahsulotlari-14 kilogram, qovoq-1,0 kilogram, mevalar-9,1 kilogram, uzum-1,0 kilogram, sitrus- 5,4 kilogram o'rtacha iste'mol qilish lozim bo'ladi. Shu bilan birga 18-54 yoshgacha ayollar, homilador va emizikli ayollar kartoshka-73 kilogram, bodring-18 kilogram, pamidor-18 kilogram, sabzi-21 kilogram, piyoz-18 kilogram, poliz mahsulotlari-18 kilogram, qovoq-1,0 kilogram, mevalar-9,1 kilogram, uzum-1,4 kilogram, sitrus-5,4 kilogram iste'mol qilishi lozim bo'ladi.

1.2.3- jadval

Mehnatga layoqatsiz aholi uchun tavsiya qilingan bir yillik ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlari⁴¹ (go'sht va sut mahsulotlari, kilogram va litrda bir yilda)

Mahsulotlar	Bolalar	Qizlar	O'g'illar	Erkaklar		Ayollar		
	(1-13)	(14-17)	(14-17)	(18-59)	>60	(18-54)	Homilador va emizikli	>55
	yosh o'rtacha	yosh	yosh	yosh		yosh		
Mol go'shti	16,4	18,25	21,9	21,9	18,25	21,9	25,55	18,25
Qo'y go'shti	7,3	10,9	10,9	10,9	7,3	7,3	10,9	7,3
Parranda	2,1	2,1	2,1	2,5	2,1	2,1	2,5	2,1
Baliq	10,9	10,9	10,9	12,7	10,9	12,7	12,7	10,9
Sut	14,6	14,6	14,6	14,6	14,6	14,6	18,2	14,6
Smetana, qaymoq	5,8	5,4	5,4	5,4	5,4	5,4	7,3	5,4
Sariyog'	6,2	9,1	9,1	1,0	1,0	1,0	1,0	9,1
Tvorog	1,2	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
Pishloq	5,4	7,3	7,3	7,3	7,3	7,3	9,1	7,3
Margarin	1,0	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8

1.2.3- jadvaldan ko'rinib turibdiki meva va poliz mahsulotlarni 1-13 yoshgacha bo'lgan bollardan toki 18-59 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 18-54 yoshli ayollar hamda homilador va emizikli ayollarni bir yillik o'rtacha ratsional

⁴¹ Ўзбекистон Республикаси аҳолиснинг ёшига, жинсига ва касбий фаолияти гуруҳлари учун соғлом овқатланишни таъминлашга қаратилган ўртача кунлик рационал овқатланиш нормативлари СанҚваН № 0007-20 сонли нормативи. 2020 йил. 1-илоvasи асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlarida 1-13 yoshdagi bolalar mol go'shti-21,9 kilogram, qo'y go'shti-7,3 kilogram, parranda go'shti-2,1 kilogram, baliq-10,9 kilogram, sut-14 litr, smetana va qaymoq-5,8 litir, saryog'-6,2 kilogram, tvorog-1,2 kilogram, pishloq-5,4 kilogram, margarin-1,0 kilogram iste'mol qilishi lozim bo'ladi. 18-59 yoshgacha bo'lgan erkaklar mol go'shti-21,9 kilogram, qo'y go'shti-10,9 kilogram, parranda go'shti-2,5 kilogram, baliq-12,7 kilogram, sut-14,6 litr, smetana va qaymoq-5,4 litr, saryog'-1,0 kilogram, tvorog-1,0 kilogram, pishloq-7,3 kilogram, margarin-1,8 kilogram iste'mol qilishi lozim bo'lsa, 18-54 yoshli ayollar hamda homilador va emizikli ayollarni bir yillik o'rtacha ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlarida mol go'shti-21,9 kilogram, qo'y go'shti-7,3 kilogram, parranda go'shti-2,1 kilogram, baliq-12,7 kilogram, sut-14,6 litr, smetana va qaymoq-5,4 litr, saryog'-1,0 kilogram, tvorog-1,0 kilogram, pishloq-7,3 kilogram, margarin-1,8 kilogram iste'mol qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

1.2.4- jadval

Mehnatga layoqatsiz aholi uchun tavsiya qilingan bir yillik ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlari⁴² (qo'shimcha iste'mol mahsulotlari, ming dona va gram, kilogramda bir yilda)

Mahsulotlar	Bolalar	Qizlar	O'g'illar	Erkaklar		Ayollar		
	(1-13) yosh o'rtacha	(14-17) yosh	(14-17) yosh	(18-59) yosh	>60	(18-54) yosh	Homilador va emizikli	>55
Tuxum (dona)	292	365	365	365	365	365	365	365
Shakar	7,6	10	10	10	7,3	10	10	7,3
Asal	2,2	3,6	5,4	7,3	7,3	7,3	1,0	5,4
O'simlik moyi	5,1	9,1	9,1	9,1	9,1	9,1	9,1	7,3
Yodlangan tuz (1,0	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8
Choy (gramida)	730	730	730	1,095	1,095	730	730	730
Kofe (gramida)	730	730	730	1,095	1,095	730	730	730
Kaloriyasi	6,8	1,0	1,0	1,1	1,0	1,0	1,1	9,4
Oqsil kkal	2,7	3,7	4,0	4,3	3,8	3,9	4,5	3,7
Yog'lar kkal	2,8	4,0	3,9	4,3	4,1	3,8	4,6	3,7
Uglevod kkal	9,6	1,5	1,7	2,0	1,8	1,6	2,3	1,6

⁴² Ўзбекистон Республикаси аҳолиснинг ёшига, жинсига ва касбий фаолияти гуруҳлари учун соғлом овқатланишни таъминлашга қаратилган ўртача кунлик рационал овқатланиш нормативлари СанҚваН № 0007-20 сонли нормативи. 2020 йил. 1-илоvasи асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

1.2.4- jadvaldan ko‘rinib turibdiki qo‘shimcha iste‘mol mahsulotlarni 1-13 yoshgacha bo‘lgan bolalardan toki 18-59 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 18-54 yoshli ayollar hamda homilador va emizikli ayollarni bir yillik o‘rtacha ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me‘yorlarida 1-13 yoshdagi bolalar tuxum 292 dona, shakar-7,6 kilogram, asal-2,2 kilogram, o‘simlik moyi-5,1 kilogram, yodlangan tuz-1,0 gram, choy-730 gram, kofe-730 gram iste‘mol qilishi lozim bo‘lsa, 18-59 yoshgacha bo‘lgan erkaklar tuxum 365 dona, shakar-1,0 kilogram, asal-7,3 kilogram, o‘simlik moyi-9,1 kilogram, yodlangan tuz-1,8 kilogram, choy-1,095 gram, kofe-1,095 gram iste‘mol qilishi lozim bo‘lsa, 18-54 yoshli ayollar hamda homilador va emizikli ayollarni bir yillik o‘rtacha ratsional ovqatlanish tuxum 365 dona, shakar-1,0 kilogram, asal-7,3 kilogram, o‘simlik moyi-9,1 litr, yodlangan tuz-1,8 kilogram, choy-730 gram, kofe-730 gram iste‘mol qilishi lozim bo‘lsa, 1-13 yoshdagi bolalarda kalloriyasi- 6,8 kkal, oqsil-2,7 kkal, yog‘lar-2,8 kkal, uglevod-9,6 kkal ni, 18-59 yoshli erkaklarda esa kalloriyasi-1,1 kkal, oqsil-4,3 kkal, yog‘lar-4,3 kkal, uglevod-2,0 kkal ni, 18-54 yoshli ayollar hamda homilador va emizikli ayollarda esa kalloriyasi-1,0, oqsil-3,9 kkal, yog‘lar-3,8 kkal, uglevod-1,6 kkal ni tashkil etishi lozim bo‘ladi.

Yuqoridagilar bilan birga hususan, 2023-yilda belgilangan ko‘rsatkichlarga erishish maqsadida 4 mln ga (+358 ming ga), shundan 2,5 mln ga asosiy, 214 ming ga bog‘-tog‘ qator orasi, 424 ming ga lalmi va 903 ming ga takroriy maydonlarda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish belgilangan.

Mazkur maydonlardan, 8,1 mln tn boshqoli don, 528 ming tn sholi, 579 ming tn dukkakli, 345 ming tn moyli, 12,2 mln tn sabzavot, 2,5 mln tn poliz, 4,1 mln tn kartoshka, 3,1 mln tn meva va 2 mln tn uzum etishtirilishi prognoz qilindi.

Shuningdek, xududlarda dala chetlariga 71 ming ta fermer xo‘jaliklari tomonidan jami 59 ming ga, shundan 35 ming ga 121 mln dona tut, tok, terak, mevali ko‘chatlar hamda 24 ming ga poliz, sabzavot va boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish ishlari yakunlandi.

1.2.5- jadval

Mehnatga layoqatli aholi uchun tavsiya qilingan ratsional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlari (kilogramm bir yilda)⁴³

Mahsulotlar	Erkaklar		Ayollar		
	(18-59)	60≤	(18-54)	Homilador va emizikli	55≤
Un va un mahsulotlari	9,1	7,3	7,3	7,3	7,3
Guruch	18	14	16	18	14
Makaronlar	18	10	14	73	54
Kartoshka	80	73	73	80	54
Bodring	18	14	18	18	14
Pomidor	18	14	18	18	14
Sabzi	18	18	18	21	18
Piyoz	14	10	14	18	14
Boshqa sabzavotlar	21	21	21	21	20
Poliz mahsulotlari	18	14	18	18	14
Mevalar	91	91	91	91	80
Mol go'shti	21	18	21	25	18
Qo'y go'shti	10	7,3	7,3	10	7,3
Parranda	2,5	2,1	2,1	2,5	2,1
Baliq	12	10	12	12	10
Baliq mahsulotlari	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
Sut	14	14	14	18	14
Tuxum (dona)	365	365	365	365	365
Shakar	10,9	7,3	7,3	10,9	7,3
O'simlik moyi	12,7	10,9	9,1	12,7	9,1
Yodlangan tuz	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8
Choy (grammda)	730	730	730	730	730

1.2.5-jadvaldan ko'rish mumkinki, 18-59 yoshdagi erkaklar qo'shimcha iste'mol mahsulotlaridan o'rtacha un va un mahsulotlarini – 9,1 kilogramm, mol go'shti -21 kilogramm, sut - 14 litr, makaronlar - 18 kilogramm, shakar – 10 kilogramm, o'simlik moyi - 10 litr, kartoshka - 80 kilogramm, choy - 1,0

⁴³ Ўзбекистон Республикаси аҳолиснинг ёшига, жинсига ва касбий фаолияти гуруҳлари учун соғлом овқатланишни таъминлашга қаратилган ўртача кунлик рационал овқатланиш нормативлари СанҚваН № 0007-20 сонли нормативи. 2020 йил. 1-илоvasи асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

kilogramm, yodlangan tuz - 1,8 kilogramm iste'mol qilishi lozim bo'lsa, 18-54 yoshgacha bo'lgan ayollar, homilador va emiziklik ayollar qo'shimcha iste'mol mahsulotlari o'rtacha un va un mahsulotlarini - 7,3 kilogramm, mol go'shti - 21 kilogramm, sut - 14 litr, makaronlar - 14 kilogramm, shakar - 7,3 kilogramm, o'simlik moyi - 9 litr, kartoshka - 73 kilogramm, choy - 730 gramm, yodlangan tuz - 1,8 kilogramm iste'mol qilishi zarur hisoblanadi.

Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha yil yakuniga qadar tizimli ishlar natijasida qoramollar bosh soni 14,4 mln boshga (103,6%), qo'y-echkilar 24,3 mln boshga (103,1%) yetkazilib, 2,9 mln tn (104,7%) go'sht (tirik vaznda), 12,2 mln tn (107,1%) sut, 9,0 mlrd dona (105,2%) tuxum, 650 ming tn (130%) baliq va 31 ming tn asal (211%) ishlab chiqarish prognoz qilingan.

Joriy yilning yanvar-may oylarida qoramollar soni 13,5 mln boshga, qo'y-echkilar 23,2 mln boshga (103 %) va parrandalar bosh soni 89 mln boshga (102,6 %) yetkazildi, 946 ming tn (104,1 %) go'sht (*tirik vaznda*), 3,7 mln tn (104 %) sut, 20 ming tn baliq va 2,4 mlrd dona (104 %) tuxum ishlab chiqarildi.

Oziq-ovqat sanoati bo'yicha: Respublikada oziq-ovqat sanoatida 22 mingdan ortiq turli mulkchilik shaklidagi (1 404 ta meva-sabzavotni qayta ishlash, 1 069 ta go'sht, 1 607 ta sutni qayta ishlash va 18 300 tadan ortiq boshqa) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda.

Mazkur korxonalar bilan 2023-yilda jami 75,5 trln so'mlik (o'tgan yilga nisbatan 116,2 %) oziq-ovqat sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish belgilab olindi.

Joriy yil yanvar-may oylarida qiymati 10 mlrd.so'm, quvvati 1,5 ming tn bo'lgan 1 ta zamonaviy agrologistika markazi foydalanishga topshirildi. Qiymati 23,9 mlrd.so'm, quvvati 14,5 ming tn bo'lgan 22 ta sovutgichli omborxonalar foydalanishga topshirildi.

Natijada, agrologistika markazlari soni 67 taga, quvvatlar 901 ming tnga yetkazildi, shuningdek sovutgichli omborxonalar soni 1820 taga va quvvatlari 1 mln 196 ming tonnaga yetkazildi.


Yil yakuniga qadar, quvvati 63 ming tn bo‘lgan 9 ta loyihalar amalga oshirilib, agrologistika markazlari soni jami 76 taga va quvvati 964 ming tnga yetkaziladi. Jami quvvati 11,2 ming tn bo‘lgan 19 ta loyihalar amalga oshirilib, sovutgichli omborxonalar soni jami 1 839 taga va quvvati 1 210 ming tnga yetkaziladi.

Mamlakatimiz o‘zining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bilan birga, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali xorijiy davlatlarning oziq-ovqat ta’minotiga munosib hissa qo‘shayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e’tirof etilmoqda. Jumladan, BMT “Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)”ning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasida “Ming yillik rivojlanish maqsadlari”ga erishgani uchun maxsus mukofotiga sazovor bo‘lgan dunyodagi 14 ta davlatning biri sifatida mamlakatimizning e’tirof etilgani bu boradagi islohotlarga berilgan munosib baho bo‘ldi.

Xalqaro oziq-ovqat siyosati ilmiy-tadqiqot instituti hisobotlarida ham yurtimizda keyingi yillarda bu borada e’tirofga sazovor ishlar amalga oshirilayotgani qayd etildi. Oziq-ovqat xavfsizligi masalasida so‘z borganida oziq-ovqat bozori barqarorligiga tahdidlarni o‘z vaqtida bartaraf etish, oziq-ovqat tovarlari importini qulay bojxona-tarif tartibga solish bo‘yicha choralarni belgilash maqsadida ishlab chiqilgan «2019-2024 yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash Milliy dasturi» ham aynan shu maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mazkur yo‘nalishda Respublikamizda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha strategik jihatdan maqsadli hamda izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Fikrimizcha, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash va iste’mol ratsionini tartibga solish, oziq-ovqat turi, kaloriyasi va sifati jihatidan talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish zarur.(1-rasm).



1-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish mexanizmi⁴⁴.

1-rasmda ifodalangan mexanizmning asosiy qoida va tamoyillari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1) oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va aholiga yetkazishga mas'ul idora va tashkilotlar (Qishloq xo'jaligi vazirligi, Statistika agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va h.k.), Sog'liqni saqlash vazirligi (jumladan, Sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati) va uning hududiy boshqarmalari bilan bir qatorda mahalliy hokimiyat va mahallaning o'zaro uyg'un, faol va izchil faoliyatini ta'minlash;

2) oziq-ovqat xavfsizligi darajasini aniqlashda asosiy e'tiborni mehnatning og'irligi va kasb guruhlari, iqlim va ovqatlanish milliy xususiyatlari, quvvatga va asosiy oziq-ovqat moddalariga fiziologik ehtiyoj, aholining jinsiy, yosh tarkibi va alohida xususiyatlari kabi unsurlardan tarkib topuvchi rasional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlariga qaratish;

⁴⁴ Муаллиф ишланмаси асосида тузилган.

3) aholining muayyan davrdagi oziq-ovqatga ehtiyoji va uning amaldagi iste'moli o'rtasidagi tafovutni aniqlashda oziq-ovqat turi, kaloriyasi va sifati bo'yicha yondashish;

4) oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish mexanizmining asosiy maqsadi sifatida nafaqat oziq-ovqatga ehtiyoj va uning amaldagi iste'moli o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish, balki oziq-ovqat iste'molini miqdor va sifat jihatdan takomillashtirishni belgilash.

Shu bilan birga, mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Muammolarni bartaraf etish hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini oshirish, aholining faol va sog'lom hayoti uchun zarur bo'lgan yetarli miqdordagi xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari uchun jismoniy va iqtisodiy imkoniyatga ega bo'lishi, mahsulotlarni sifatini yaxshilash, narxlar barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

respublikaning barcha hududlari darajasida belgilangan maqsadli mezonlarni bajarishni ta'minlovchi agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni tartibga solish va boshqarish tizimini joriy qilish;

oziq-ovqat xavfsizligini aniqlash, baholash va kutilishi mumkin bo'lgan xavfni oldindan bilish tizimini joriy qilish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan korxonalar tarmog'ini kengaytirish;

meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashga ixtisoslashgan sovutish kameralari, ularni saralash va qadoqlash punktlari hamda tashish bilan shug'ullanuvchi maxsus transport-kommunikatsiya tarmog'ini kengaytirish;

qayta ishlash sanoatining material va energiya sig'imini pasaytirish, resurs tejoyvchi kam chiqimli texnologiyalarga ustuvorlik berish;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va suv resurslaridan oqilona foydalanish;

asosiy turdagi qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlari, xom-ashyoni ichki ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish;

chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik sohasini barqaror rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish xajmlarini ko‘paytirish, ozuqa bazasini mustahkamlash;

qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash;

oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlash;

aholini barcha qatlamlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanishi uchun iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish;

meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va bir vaqtning o‘zida qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi ishlab chiqarish majmualari, xoldinglar, klasterlar va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari faoliyatini kengaytirish;

qishloq joylarda meva-sabzavot va uzumni qayta ishlovchi korxonalarini uchun zarur bo‘lgan infratuzilmalar, birinchi navbatda yo‘llar, gaz, elektr va suv ta‘minoti hamda boshqa injenerlik-kommunikasiya tarmoqlari bilan uzluksiz ta‘minlashni yo‘lga qo‘yish va boshqalar.

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligiga erishish qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati va savdo tarmog‘ida strategiya va dasturlarning ijrosiga bog‘liqligini hisobga olgan holda soha va tarmoqlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish lozim.

1.3-§. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning xorij tajribasi

Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi YAIM tarkibida kam ulishni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlardagi agrar siyosat uch guruhga bo‘linadi. Jumladan:

Agrar siyosatning Jahon maamlakatlaridagi xususiyatlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak: Jahon mamlakatlarning qishloq xo‘jaligi salohiyatini baho beradigan bo‘lsak jumladan: Xitoy, Hindiston, AQSH, Braziliya va Rossiyani o‘z ichiga olgan 5 ta yetakchi 2023 ishlab chiqaruvchilarni tahlil etsak, taxminiy hisob-kitoblarga ko‘r, ularni ishlab chiqarishning umumiy hajmi 3,8 trillion dollardan

ortiqni tashkil etgan. Albatta, tahlil agrosanoat majmuasining ob-havo va iqlim sharoitlariga bog'liqligini hisobga oladi, bu turli mamlakatlarda juda katta farq qilishi mumkin va fors-major holatlari uchun foizni belgilaydi, ammo bunday taxminlar bilan ham asosiy qishloq xo'jaligi beshligi agrosanoat majmuasi mahsulotlarining asosiy yetkazib berilishini hisobga oladi.

Xitoy qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan universal mamlakat, chunki hududdagi tuproq sharoiti va iqlimi juda xilma-xildir, shuning uchun jahon bozorida (bug'doydan guruch va tariqgacha) keng ko'lamli marjinal va talab qilinadigan ekinlarni etishtirish imkoniyati mavjud. Dunyo ekin maydonlarining 7% xitoy xissasiga to'g'ri keladi va mamlakat dunyo aholisining 22 foizini "oziqlantiradi". Qishloq xo'jaligi sanoatida garov ulushi 80% dan ortiq bo'lgan oilaviy fermer xo'jaliklariga joylashtiriladi. Ular mahsulotlarning asosiy qismini "ishlab chiqarib" dunyo aholisiga yetkazib beradigan fermer xo'jaliklardir. Shu bilan birga, davlat tomonidan katta qishloq xo'jaligi qo'llab-quvvatlanmoqda, sanoatni modernizasiya qilishga katta mablag' sarflandi. Hosildorlik ilg'or texnologiyalarni, shu jumladan punktli dehqonchilikni joriy etish orqali oshiriladi. Bu esa o'z mevasini bermoqda: Xitoy ko'p yillar davomida dunyodagi eng yirik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi maqomini saqlab kelmoqda va 2023-yilda ishlab chiqarish 1,14 trillion dollarga etdi.

Xitoy qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarning asosi oilaviy pudrat bo'lib, u ijaraning (arendaning) bir shakliga kiradi. Ijara muddati 5 yilni tashkil etib, yer ko'pchilik hollarda dehqon oilalariga, uning soniga qarab bo'lib berilgan, ba'zi provinsiyalarda eca, uning mehnatga layoqatli a'zolariga qarab taqsimlangan.

Islohotlarning dastlabki yillarida dehqon oilalariga, pudrat asosida bitim bilan 1 yildan 3 yilgacha vaqt mobaynida yer uchastkalari bo'lib berilgan bitim muddati tugagach, oilalararo yerni taqsimlash tartibi qayta ko'rib chiqilgan. Dehqon oilasi bitimga binoan, ishlab chiqarish va mahsulot etishtirish uchun o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajaradi.

Bundan tashqari, oila yana qishloq tashkilotlari boshqarmasiga, jamoa fondiga va qishloq xo'jaligiga soliqlar to'laydi.

Bu soliq miqdori bir necha yillardagi ishlab chiqarish darajasi bilan aniqlanadi. O'z navbatida, qishloq tashkilotlari dehqonlarga yordamlashadi. Ular bitimga binoan, urug', ekin ko'chatlari, o'g'itlar bilan dehqonlarni ta'minlaydi.

Bitimda ko'rsatilgan summaning soliqlar va yetishtirilgan mahsulot miqdoridan ortib qolgan qismi esa, dehqon oilasi ixtiyorida qoladi. Dehqonlar ortiqcha mahsulotlarni bozorlarda sotish yoki davlatga yuqori narxlarda (ya'ni sotib olish miqdoridan 50% yuqori narxda) sotishi mumkin. Qishloqda xo'jaligi tizimi islohotlariga, asosan, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning rivojlanishiga katta ahamiyat berilgan.

Shaxsiy foydalanish uchun Shanxay, Nankin shaharlarida 0,7 mu⁴⁵ dan (1 mu =0,067 ga) yer ajratilib berilib, unda har bir oilaga 10 tagacha cho'chqa va 100 tagacha tovuq-xo'roz boqishga ruxsat berildi. Bunday shaxsiy xo'jaliklarda yetishtirilgan mahsulotning bir qismi ichki bozorlarga taklif etiladi.

Xitoydagi qishloq xo'jaligi islohotlari mukammal bo'lmagan juz'iy kamchiliklariga ega. Zero, mazkur islohotlar kommunistik g'oya tamoyillari bilan murosa qilishni doim taqozo etgan. Biroq bu islohotlardan qator xulocalar kelib chiqadi.

Fikrimizcha, Xitoy qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan birgina tuzatish (shunchaki jamoa bo'lib ishlatilgan yerlar oilalarga bo'lib berilishi) ulkan o'zgarishlarni keltirib chiqardi – “zanjirli reaksiya”ni paydo qildi. Moddiy manfaatdorlik ortgan sari ishga bo'lgan munosabatning ijobiy o'zgarishini kuzatgan Xitoy rahbariyati tajribani iqtisodiyotning sanoat sohasiga ham tatbiq etdi va bunda xatto g'oyaviy “cheklovlar”ga e'tibor bermacdan, yo'llarni (imkoniyatlarni) ochib berdi. Oqibatda Xitoyda millionlab xususiy korxonalar vujudga keldi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Xindistonda mamlakat umumiy aholisining yarmidan ko'pi qishloq xo'jaligidan daromad oladi va uning YAIMdagi ulushi 18% ni tashkil qiladi. So'nggi yillarda mamlakat hukumati milliy agrosanoat majmuasini rivojlantirish va ustuvor tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni maqsadli ravishda kuchaytirdi. Hindiston asta-sekin quritilgan meva

⁴⁵ http://www.onlineunitconversion.com/mu_to_hectare.html (1 mu =0,067) га теңг.

etishtirish bo'yicha 2-o'ringa, baliq bo'yicha 3-o'ringa va parranda go'shti bo'yicha 5-o'ringa erishishga muvaffaq bo'ldi. Sektorning yillik o'sishi 11% da belgilangan. Hozir qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 70% dan ortig'i fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilmoqda va qo'llab-quvvatlash tufayli ular hosildorlikni oshirishi mumkin⁴⁶. Shu sababli, Hindiston 2023-yilda ishlab chiqarish hajmi 905 milliard dollarni tashkil etgan holda reytingda ikkinchi o'rinni egallashi kutilmoqda.


2023-yilda Hindiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarishini 906 milliard dollarga yetkazib dunyoda ikkinchi yirik ishlab chiqaruvchisi bo'ldi. Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotining 70% dan ortig'ini dehqonchilik tashkil etadi. So'nggi yillarda mamlakat hukumati milliy agrosanoat majmuasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarni sezilarli darajada kuchaytirdi.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) an'anaviy ravishda soya va makkajo'xori kabi yuqori darajali ekinlarni yetishtirish bo'yicha dunyoda etakchilardan biri bo'lib kelgan. Bu yerda bozorda doimiy talabga ega bug'doy ham yetishtiriladi. Sektorning o'ziga xos xususiyati uning ishlab chiqarish qobiliyatining omili bo'lgan, yetishtirish texnologiyalarida (tuproqni ilmiy tahlil qilishdan kompyuter texnologiyalariga qadar) doimiy ravishda yangilik kiritadigan va umumiy hosildorlikni oshiradigan xususiy fermer xo'jaliklariga emas, balki yirik tijorat xoldinglariga bog'liqligidir. Shu sababli, 2023-yilda Amerika Qo'shma Shtatlari 829 milliard dollarlik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarib dunyoda uchinchi qatorni mahkam egalladi. Alohida-alohida, yetkazib berish geografiyasini muvaffaqiyatli diversifikatsiya qilishga imkon beradigan yaxshi ishlab chiqilgan eksport vositalarini ta'kidlash kerak.

2023-yilda Amerika Qo'shma Shtatlari prognoz qilingan 829 milliard dollarlik qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarib dunyoda uchinchi yirik ishlab chiqaruvchisiga aylandi. Amerika qo'shma Shtatlari dunyodagi yetakchi makkajo'xori va soya ishlab chiqaruvchilardan biri bo'lib, bug'doy yetishtiradi (bularning barchasi marjinal ekinlar) va eksport geografiyasini diversifikatsiya qilib,

⁴⁶ <https://woman.rambler.ru/cooking/50595470-glavnaya-mirovaya-agrarnaya-pyaterka-po-proizvodstvu-selhozproduktii-2023/>

yaxshi rivojlangan eksport vositalariga ega. Mamlakat qishloq xo‘jaligi sanoati katta tijorat xoldinglariga bog‘liq bo‘lib, u yerda hosildorlikni oshirish uchun ilg‘or texnologiyalar joriy etilmoqda.



1.3.1-rasm. 2011-2023 yillarda Xitoy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining AQSHga eksporti (milliard dollar)⁴⁷

1.3.1-rasmdan ko‘rish mumkinki, AQSHning Xitoydan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti so‘nggi yillarda keskin ortgan, jumladan 2011-yilda import hajmi 22 milliard dollarni tashkil etib 2023-yilga kelib ushbu ko‘rnatkich qariyb 1.5 barobarga ko‘payib 33 milliard dollarga yetdi.

Agrar tarmoqning bozor qonunlari asosida takomillashishiga iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar hamda hududiy zamonaviy yirik savdo bloklarining shakllanishi va rivojlanishi ham katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Qishloq xo‘jaligi AQSH iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadigan tarmoqlardan biridir.

AQSH ham rivojlangan agrosanoat tizimiga ega. ASM mamlakatda tashkiliy tarkibi uchta sohadan iborat.

⁴⁷ <https://www.fas.usda.gov/data/china-evolving-demand-world-s-largest-agricultural-import-market> US Trade Data Monitor 2020 y.

Birinchi soha moddiy-texnik xizmat ko'rsatishni (traktorsozlik, qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo sanoati, ozuqa sanoati, hayvonlar farmatsevtikasi sanoati, urug'chilik sanoati) o'z ichiga oladi va qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradi.

Ikkinchi sohaga qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'zi kiradi.

Uchinchi sohaga esa qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, yetkazib berish va sotish bilan bog'liq bo'lgan va qishloq xo'jalik mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlar kiritiladi. Bu tarmoqlar oziq-ovqat sanoati, tara va ombor xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini ulgurji va chakana savdo qilish, transport, umumiy ovqatlanish kabilarini o'z ichiga oladi⁴⁸.

AQSH qishloq xo'jaligiga davlatning ta'siri katta bo'lib, oziq-ovqatga bo'lgan talabni shakllantirish va ichki bozorni jahon bozori bilan integratsiyalashuviga qaratilgan. Asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- qishloq xo'jaligida ishlab chiqaruvchilarni daromadlarini kafolatlangan baholar orqali qo'llab-quvvatlash;
- qishloq xo'jalik ishlab chiqarish infrastrukturasi yaratish;
- fermerlarga imtiyozli kredit xizmatini taklif etish;
- qishloq xo'jaligi mutaxassislarini tayyorlash, o'qitish va ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalarini amaliyotga joriy qilish orqali moliyalashtirishni tashkil qilish;
- yer va suv resurslarini muhofaza qilish;
- atrof-muhitning holati va oziq-ovqatlar sifati bo'yicha nazoratni amalga oshirish;
- davlat tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari eksporti va importini tartibga solishda davlat alohida o'rin tutadi.

Qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotida ulushi past bo'lsada, davlat tomonidan unga korsatilayotgan yordam hajmi kattadir. Amerika qishloq xo'jaligi tadqiqotlari institutida (AQXTI) 5000 ga yaqin doimiy xodimlar, shu jumladan

⁴⁸ Д.Н.Саидова, И.Б.Рустамова, Ш.А.Турсунов. "Аграр сийсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги". Ўқув қўлланма. Т.: "ЎзР Фанлар Академияси Асосий кутубхонаси" 2016 й. 260 б.

2000 ga yaqin ilmiy tadqiqotchi olimlar faoliyat olib boradi. AQXTIning Oliy Ijroiya Xizmati a'zosi bo'lgan ma'sul boshqaradi. AQXTI olimlari 700 ga yaqin qishloq xo'jaligiga oid tadqiqot loyihalarini amalga oshirish uchun 15 ta milliy dasturda ishtirok etadi⁴⁹.

Agrar sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlari mamlakatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ta'minlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

1.3.1-jadval

Oziq-ovqat xavfsizligi darajasi (foizda)⁵⁰

№	Mamlakat Lar	2014-2016 yy	2016-2018 yy	2018-2020 yy	o'zgarishi
1	AQSH	10.5	8.9	8.0	-2.5 f.p.
2	Kanada	5.0	5.0	5.8	-0.8 f.p.
3	Meksika	25.6	23.0	26.1	+0.5 f.p.

1.3.1-jadvaldan ko'rinadiki, 2014-2020 yillarda oziq-ovqat xavfsizligi darajasi AQSH va Kanadada kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Agar oziq-ovqat mahsulotlarining 85 foizi ishlab chiqarilsa va iste'molning kamida 17 foizi zahira sifatida saqlansa, ushbu mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlangan hisoblanadi.

Demak, davlatning agrar siyosati quyidagi faoliyat turlarida ta'sir ko'rsatadi:

- intellektual mulkni patentlashtirish, litsenziyalash, xalqaro kelishuvlar orqali davlat tomonidan himoya qiladi;

- maxsus ilmiy–texnika yutuqlarini qishloq xo'jalik amaliyotiga joriy qilishni davlat tomonidan tartibga solishni tashkil qiladi;

- ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotini sifati, saqlash, transportirovka , qo'llanilayotgan kimyoviy va veterinariya preparatlari va laboratoriya ishlarini olib borishni tartibga solishni nazoratga oladi.

⁴⁹ Genevieve K. Croft 2020 "Agricultural Research: Background and Issues" Congressional Research Service <https://sgp.fas.org/crs/misc/R40819.pdf>

⁵⁰ World food and agriculture statistical yearbook, Food and Agriculture organization of the United Nations, 2021. P.258-262

Shuningdek, 2019-yilda Federal hukumat 3,24 milliard dollar yoki qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan umumiy xarajatlarning 64 foizini moliyalashtirgan. Mahalliy hukumatlar qo'shimcha 1,06 milliard dollar, nodavlat sektori eca 741 million dollar mablag' ajratgan⁵¹.

AQSH qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishi ichki va tashqi bozor talablariga bog'liqdir. Milliy bozordagi shaxsiy iste'mol tarkibining o'zgarishi, daromadlar darajasi va demografik omillar agrar siyosatga katta ta'sir ko'rsatadi. Ichki bozorda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan tarkibiy talab o'zgarishi katta muammo emac, chunki davlat tomonidan tartibga solinadigan agrar siyosat deyarli o'z oldidagi muammolarni bartaraf etgan⁵².

AQSH agrar sohasida tashqi siyosat ustuvorlik kacb etadi. AQSH boshqa mamlakatlar bilan quyidagi masalalarni kelishgan holda faoliyat olib boradi:

- subsidiyalarini eksportga qisqartirish;
- milliy bozorlaridagi ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qatnashchi-mamlakat davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasini qisqartirish;
- agrar iqtisodiyotda bozor munosabatlarini kuchaytirish;
- xalqaro savdoni liberallashtirish va qattiq fitosanitariya reglamentlarini o'rnatish⁵³.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksportida AQSH o'zining yirik eksportchisi maqomini saqlab qolishi uchun hozirgi kunda jahon xo'jaligidagi qiyinchiliklarga qaramay mamlakatdagi ishlab chiqarish xarajatlarning kamligi boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda bunday imkoniyatni saqlab qolish uchun yetarlidir. Agrar siyosat yo'nalishlari asosiy vositalar samaradorligining ortishi, ishlab chiqarishga raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi, baholarning asossiz oshib ketishini bartaraf etishni ta'minlash (raqamli texnologiyaning arzonga tushishi bilan bog'liq), moddiy

⁵¹<https://www.ers.usda.gov/amber-waves/2022/june/investment-in-u-s-public-agricultural-research-and-development-has-fallen-by-a-third-over-past-two-decades-lags-major-trade-competitors/> AQSH Qishloq x'jaligi tadqiqotlari departamenti ma'lumotlari

⁵²<https://www.ers.usda.gov/amber-waves/2022/june/investment-in-u-s-public-agricultural-research-and-development-has-fallen-by-a-third-over-past-two-decades-lags-major-trade-competitors/> AQSH Qishloq x'jaligi tadqiqotlari departamenti ma'lumotlari

⁵³ The Uruguay Round Agreement on Agriculture An Evaluation of its Implementation in OECD Countries <https://www.oecd.org/publications/the-uruguay-round-agreement-on-agriculture>.

kapital elementlarining qisqartirilishi (traktorlar, mashinalar, ishlab chiqarish qurilishlari) va biologik omillarning (qishloq xo‘jalik ekinlari navi va hayvonlar naslini yaxshilash) ishlab chiqarishdagi rolini oshirishdan iborat.

Yangi agrotexnologiyalarning ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan “inson omili” ga, to‘g‘rirog‘i, uning malakasiga talab ham oshadi. Keyingi yillarda agrar tarmoqda ishlovchilarning soni qisqarib, malaka darajasi oshirishga e‘tibor qaratilmoqda. Boshqa rivojlangan mamlakatlar singari, AQSHda ham agrosanoat majmuini rivojlantirish raqobatbardosh oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘langan. Mamlakatda oziq-ovqat sanoati rivojlangan majmuani tashkil etib, o‘zida 40 dan ortiq tarmoqni jamlagan 22000 ta korxonadan tarkib topadi. Oziq-ovqat sanoatida asosiy o‘rinni 100 ta yirik firma egallab, mamlakatning 500 ta yirik korpopatsiyalari qatoridan ularning 60 tasi joy olgan.⁵⁴

Soya, qahva va mol go‘shiti Braziliya agrosanoat majmuasining asosiy mahsulotlari bo‘lib, ularni ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Ammo so‘nggi yillarda Braziliya boshqa sohalarda, masalan, AQSH bilan jiddiy raqobatlashayotgan makkajo‘xori sohasida o‘z salohiyatini faol ravishda oshirmoqda. Joriy dala mavsumida ekin maydonlari rekord ko‘rsatkichlarga qadar kengaytirildi, mos ravishda eng katta, hatto eng katta tarixiy hosillardan biri kutilmoqda. Albatta, bu yerda ob-havo sharoiti muhim, ammo hozircha bu yo‘nalishdagi prognoz ko‘rsatkichlar xosildorlikni ortganini ko‘rsatmoqda. Qishloq xo‘jaligi sanoatining yadrosi yuqori intensivlikdagi agronomik amaliyotga tayanadigan qishloq xo‘jaligi xoldinglaridir. Shu tufayli 2023-yilda 573 milliard dollarga yetdi.

Braziliya 2023-yilda 573 milliard dollarlik prognozli mahsulot bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining to‘rtinchi yirik ishlab chiqaruvchisiga aylanadi. Braziliya soya, qahva va mol go‘shiti ishlab chiqaruvchi yetakchi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi sanoati qishloq xo‘jaligi xoldingi, yuqori intensiv agrotexnika amaliyoti va zamonaviy texnologiyalarga tayanadi.

⁵⁴ <https://www.ers.usda.gov/amber-waves/2022/june/investment-in-u-s-public-agricultural-research-and-development-has-fallen-by-a-third-over-past-two-decades-lags-major-trade-competitors/> АҚШ Қишлоқ хўжалиги тадқиқотлари департаменти маълумотлари

Rossiya noyob tabiiy va tuproq sharoitlariga ega, shuningdek, turli mintaqalarda turli xil ekinlarni yetishtirish uchun mo‘l-ko‘l resurslar mavjud. So‘nggi yillarda mamlakat bug‘doy, arpa va kungaboqarning yetakchi ishlab chiqaruvchisi maqomini mustahkamladi. G‘arb sanksiyalarining qulashiga qaramay, u eksportni oshirishda davom etmoqda. 2023-yilda o‘shish 2022-yil mavsumga nisbatan 12% (41,6 milliard dollar)ni tashkil etgan. 2022-yilda butun agrosanoat majmuasi jiddiy ijobiy tendensiyani ko‘rsatdi—qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish indeksi 110,2% ni tashkil etdi. Ba‘zi hududlar o‘zlarining tarixiy rekordlarini o‘rnatdilar, masalan, mamlakatda rekord darajada 158 million tonna don yig‘ib olindi. Rossiya Federatsiyasi qishloq xo‘jaligi vazirligi 2023-yil iyuldan 2024-yil iyungacha Rossiya 55 million tonna don eksport qilishini taxmin qilmoqda, shundan 45 millioni bug‘doy bo‘lib bu raqamlarga ishonishning haqiqiy sabablari bor, chunki faqat 2022-yil 15-maydan 2023-maygacha tashqi bozorlarga 2 million tonnadan ortiq don yetkazib berildi, bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshganidan dalolatdir.

2023-yilga kelib, Rossiya 500 milliard dollar prognoz ishlab chiqarish bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini beshinchi yirik global ishlab chiqaruvchisi bo‘ladi. Rossiya bug‘doy, arpa va kungaboqarning yetakchi ishlab chiqaruvchisi bo‘lib, ko‘plab qishloq xo‘jaligi yerlariga, resurslariga ega, yirik xoldinglar va ilg‘or texnologiyalarga tayanadi. Eksport bo‘yicha Fransiya bug‘doy, arpa va uzumzorlar bilan oltinchi o‘rinda; Kanada bug‘doy, arpa, kolza va bog‘dorchilik va sabzavot mahsulotlari bilan yettinchi o‘rinda; Avstraliya bug‘doy, arpa va shakarqamish kabi turli xil ekinlari bilan tanilgan sakkizinchi o‘rinni band etgan. Shunday qilib, Xitoy, Hindiston, AQSH, Braziliya va Rossiya 2023-yilda 3,8 trln. Ushbu mamlakatlar qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishga katta mablag‘ sarfladilar va kelgusi yillarda ular yetakchilik qilishda davom etishlari kutilmoqda.

Jaxon mamlakatlarida 2023-yilda don hosildorligi umuman 11 kg/ga ni tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 24 % kam. Hosildorlik 2012-yildan beri eng past ko‘rsatgichga ega bo‘ldi, ya‘ni 8,6 s/ni tashkil etgan edi. Biroq, tarixda yomonroq ko‘rsatkichlar mavjud va 2023-yil o‘rtacha hosildorlik darajasiga to‘g‘ri keladi. Alohida donlar orasida javdar (-50%), suli (-31%), arpa (-28%) va bug‘doy (-27%)

hosildorligi eng ko‘p tushdi. Shu bilan birga, 2021-yilga (qurg‘oqchilik davri) nisbatan ham javdar va jo‘xori hosildorligining pasayishi kuzatilmoqda. Shuningdek, 2021-yilga nisbatan 2023-yilda grechka (-17%) va tariq(-12%) uchun hosil tushdi. Guruch hosildorligi 2,9% ga kamaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, yalpi sholi hosilining ko‘payishi samaradorlikni oshirish hisobiga emas, balki sholiga ajratilgan yer maydonlarining kengayishi bilan bog‘liq. Shunga o‘xshash holat quritilgan dukkakililar uchun ham kuzatiladi. Shuningdek, sabzavotlar, poliz ekinlari, ildiz sabzavotlari va kungaboqar urug‘lari uchun 2021-yilda 0,8% ga va 2024-yilda 7,7% ga hosilning pasayishi kuzatilmoqda.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning nazariy jihatlari uzoq xorijlik olimlar va mustaqil hamdustlik mamlakatlar hamda O‘zbekistonlik olimlarni ilmiy ishlari tahlil etilgan va mualliflik ta‘rifi shilab chiqilgan.

2. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda belgilangan ratsionlar asosida iste‘mol amalga oshirish tartibi ishlab chiqilgan.

3. Mehnatga layoqatli va layoqatsiz aholining belgilangan ratsionlar asosida ovqatlanishi uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar hisoblab chiqilib tahlil etilgan.

4. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligiga tadbiq etishni 2030-yilgacha bosqichma – bosqich amalga oshirish lozimligi asoslangan.